IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

POST-PANDEMIYA DAVRIDA BARQAROR TURIZMNI QAYTA TIKLASH: GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA VA YASHIL TIKLANISH STRATEGIYALARI

Latifjonova Adiba Bobirovna
QarDU Iqtisodiyot fakulteti
Turizm yo'nalishi 1-bosqich talabasi
+998771788978

Annotatsiya: COVID-19 pandemiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib shu bilan birga, turizm sohasini ham chetlab o‘tmay unga keskin va tizimli zarba berdi. 2019-yilda yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etayotgan xalqaro turizm qisqa vaqt ichida deyarli to‘liq harakatdan to‘xtadi, bu esa nafaqat iqtisodiy yo‘qotishlarga, balki ekologik muvozanatning ham o‘zgarishiga olib keldi. Mazkur maqolada post-pandimiya davrida barqaror turizmni qayta tiklash va to‘laqonli ishga tushirish konsepsiyasi strategik jihatdan amaliy va nazariy tahlil qilindi. Mazku davr ichida turizmga bo‘lgan yondashuv tubdan o‘zgargan va shu sababli ham sayyohlar ekologik xavfsizlik, kamroq zararli va mahalliy madaniyatga hurmat bilan yondashadigan sayohat shakllarini afzal ko‘rmoqda. Bu esa o‘z navbatida turizm industriyasini yangi talablar, takliflar va standartlarga moslashishga majbur qilmoqda. Shuningdek barqaror turizm konsepsiyasi yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyalar bir-biri bilan intregatsiyalashgan holda yangi global turizm modelini shakillantirmoqda.

Kalit so‘zlar: post-pandemiya, barqaror turizm, yashil tiklanish, yashil iqtisodiyot, global transformatsiya, turizm siyosati, ekoturizm.

Kirish. Turizm sohasi bugungi kunda rivojlanayotgan eng dolzarb sohalardan biri bo‘lib kelmoqda. U nafaqat davlatlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi, balki hududiy rivojlanish, aholi bandligini ta’minlash va madaniy almashinuvni kuchaytirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qildi. 2019-yilga kelib xalqaro turizm rekord darajaga chiqib, dunyo bo‘yicha 1,5 milliarddan ortiq sayyohni qamrab oldi va global YaIMning qariyb 10 foizini shakllantirdi. Bu esa o‘z navbatida turizmning global iqtisodiy tizimdagi o‘rni naqadar muhim ekanini yaqqol ko‘rsatib beradi. Shuningdek, pandemiyadan oldingi davrda ham turizm sohasining rivojlanishi ko‘plab tizimli muammolar bilan ham birga kechgan. Jumladan, ommaviy turizmning keskin oshib borishi natijasida ayrim mashhur yo‘nalishlarda “overtourism” holati yuzaga kelib, ekologik resurslarning haddan ortiq ekspluatatsiyasi, chiqindilar hajmining ortib borishi va bir necha mahalliy aholi manfaatlarining cheklanishi kabi muammolar kuchaygan. Turizm sohasining notekis rivojlanishi ayrim hududlarda va sohalarda bir qancha iqtisodiy inqiroz va muammolarga olib kelgan. 2020-yilda yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi esa ushbu muammolarni yanada kuchaytirdi va global turizm tizimining zaif jihatlarini ochib berdi. Chegaralarning yopilishi, sayyohlar tashrifining cheklanishi, transport qatnovlarining to‘xtab qolishi va sanitariya cheklovlari natijasida turizm faoliyati deyarli to‘liq rivojlanishdan qoldi. Buning natijasida, xalqaro turizm oqimi keskin kamayib, global iqtisodiyotda trillionlab dollar miqdorida yo‘qotishlar yuzaga keldi. Ayniqsa, iqtisodiyoti turizmga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan davlatlar kichik orol mamlakatlari, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar va xizmat ko‘rsatish sektori ustun bo‘lgan hududlar eng katta zarar ko‘rdi. Pandemiya shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy turizm modeli uzoq muddatli inqirozlargava muammolarga bardosh berishga yetarli darajada moslashmagan. Shu sababli ham post-pandemiya davrida turizmni qayta tiklash jarayoni oddiy iqtisodiy reabilitatsiya emas, balki chuqur strukturaviy transformatsiya sifatida qaralmoqda. Bu transformatsiya jarayonida asosiy

e’tiborni barqarorlik, ekologik xavfsizlik va raqamli innovatsiyalarga qaratilmoqda. Bugungi kunda barqaror turizm konsepsiyasi global rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Mazkur konsepsiya turizm faoliyatini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, ushbu soha iqtisodiy foyda bilan bir qatorda tabiiy resurslarni asrash, mahalliy aholini bandligini oshirish, ekologik zararlarni kamaytirish va mahalliy jamoalarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishni ham ta’minlaydi. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning zarar ko‘rishi, bioxilma-xillikning kamayishi va ekologik inqirozlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda barqaror turizmning ahamiyati yanada ortmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ham o‘z navbatida turizm sektorining yangi bosqichga o‘tishida muhim rol o‘ynamoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), onlayn platformalar va smart xizmatlar turizmni boshqarish samaradorligini oshirib, sayyohlar uchun yangi va zamonaviy imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bu jarayon turizmni yanada moslashuvchan, xavfsiz va samarali tizimga aylantirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, post-pandemiya davrida turizmni qayta tiklash masalasi faqat iqtisodiy tiklanish bilan cheklanib qolmay, balki ekologik, ijtimoiy va texnologik omillarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur maqola aynan shu jarayonlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, global turizmning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda yoritib beradi. **Adabiyotlar tahlili.** Pandemiya o‘zining ta’sirini barcha mamlakatlarga ko‘rsatgani sababli ham ushbu davrida barqaror turizmni rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda eng dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu mavzu nafaqat turizm iqtisodiyoti, balki ekologiya, global boshqaruv va raqamli transformatsiya bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun ko‘plab olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda. Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy turizm konsepsiyasi uch asosiy yo‘nalish barqarorlik, raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot integratsiyasi asosida shakllanmoqda. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan e’lon qilingan bir qator hisobotlarda, xususan “Tourism Recovery Report” va “Global Tourism Barometer” hujjatlarida pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Ushbu manbalarda 2020-yilda turizm oqimining 70–75 foizga kamaygani, 2021-yildan boshlab esa asta-sekin tiklanish boshlangani qayd etiladi. UNWTO ayniqsa “sustainable recovery” tushunchasini ilgari surib, turizmni qayta tiklashda ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni asosiy mezon sifatida belgilaydi.[1] Bu yondashuv an’anaviy “mass tourism” modelidan voz kechish zaruratini ilmiy asosda isbotlaydi. World Bankning “Green Economy and Tourism Development” tadqiqotida turizm sektorining yashil iqtisodiyot bilan integratsiyasi chuqur tahlil qilingan. Ushbu manbaga ko‘ra, turizm kelajakda uglerod chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi mumkin. World Bank mutaxassislari yashil investitsiyalar turizmning barqaror rivojlanishida asosiy drayverlardan biri bo‘lishini ta’kidlaydi[2]. Ayniqsa, mehmonxona sanoati va transport sektorida ekologik standartlarning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi OECD tomonidan tayyorlangan “Tourism Policy Responses to COVID-19” hisobotida esa davlatlarning pandemiyaga javob siyosatlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda ko‘plab mamlakatlar qisqa muddatli iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash choralaridan tashqari, uzoq muddatli strukturaviy islohotlarga ham e’tibor qaratgani qayd etiladi. Xususan, raqamli turizm infratuzilmasini rivojlantirish, smart destination konsepsiyasini joriy etish va turizm boshqaruvida ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarini kengaytirish asosiy

[1] World Tourism Organization. (2023). Tourism Recovery Report. Madrid: UNWTO Publishing.

[2] World Bank. (2022). Green Economy and Tourism Development. Washington, DC: World Bank Publications.

yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, Gössling va boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlari turizm va iqlim o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qiladi. Ularning fikricha, turizm global uglerod chiqindilarining sezilarli qismini tashkil etadi va agar transformatsiya amalga oshirilmasa, bu holat ekologik inqirozni yanada kuchaytirishi mumkin. Shu sababli “low-carbon tourism” va “climate-neutral tourism” kabi konsepsiyalar ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “European Green Deal” strategiyasi ham turizmni ekologik transformatsiya qilishda muhim hujjat sifatida qaraladi. Unda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror transport tizimlarini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bu yondashuv Yevropa mamlakatlarida turizm siyosatining yangi modelini shakllantirmoqda. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ilmiy qarashlarda turizm faqat iqtisodiy sektor sifatida emas, balki kompleks tizim sifatida o‘rganilmoqda. Bu tizim ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liqligida rivojlanadi. Eng muhim xulosa shuki, post-pandemiya davri turizmda yangi paradigma barqaror va raqamli integratsiyalashgan modelni shakllantirmoqda.

Metodologiya. Post-pandemiya davrida turizm sektorining qayta tiklanishi oddiy iqtisodiy faollikning boshlanishi bilan cheklanibgina qolmay, balki u chuqur tizimli o‘zgarishlar bilan kechayotgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda global turizm daromadlari keskin qisqarib, taxminan 1,1 trillion AQSh dollari miqdorida yo‘qotish qayd etilgan. Tahshrif buyurayotgan xalqaro sayyohlar sonining keskin kamayishi nafaqat mehmonxona va transport sohalariga, balki, savdo va madaniyat tarmoqlari hamda xizmat ko‘rsatish sohalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Biroq 2021-yildan boshlab tiklanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshib, 2023–2025 yillarga kelib global turizm oqimi pandemiyadan oldingi darajaning 85–95 foizigacha yetgani kuzatildi. Post-pandemiya davrida turizm sektorining qayta tiklanishi oddiy iqtisodiy faollikning tiklanishi bilan cheklanmay, balki chuqur strukturaviy o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayon sifatida o‘rganildi. Ushbu tadqiqotda barqaror turizmni tiklash jarayonini har tomonlama tahlil qilish maqsadida sifat va miqdoriy tadqiqot yondashuvlari uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli qo‘llanilib, pandemiyadan oldingi (2019-yilgacha) va post-pandemiya davridagi (2021–2025-yillar) turizm rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirildi. Ushbu usul orqali turizm sektoridagi asosiy o‘zgarishlar, xususan, sayyohlar xulq-atvori, talab dinamikasi va xizmatlar tuzilmasidagi farqlar aniqlandi. Tiklanish jarayonining eng muhim xususiyatlaridan biri u avvalgi model eski asosida emas, balki yangilangan yondashuvlar asosida amalga oshmoqda. Sayyohlarning xulq-atvori tubdan o‘zgardi: ular endilikda ommaviy, gavjum va ekologik jihatdan zararli yo‘nalishlardan ko‘ra, kamroq zarar yetkazadigan, tabiiy muhitga yaqin va individual sayohat shakllarini afzal ko‘rmoqda.

Natija. Ekoturizm, agro-turizm va madaniy turizm kabi yo‘nalishlarga talabning 30–40 foizga oshgani aynan shu tendensiyani tasdiqlaydi. Bu esa o‘z navbatida turizm industriyasini yangi talablar asosida qayta tashkil etishga majbur qilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni ham turizmning tiklanishida hal qiluvchi omillardan biriga aylandi. Pandemiya davrida kontaktlarni minimallashtirish zarurati natijasida onlayn xizmatlar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar keng joriy etildi. Mazkur davrga kelib mehmonxonalarda “contactless service”, aeroportlarda biometrik nazorat tizimlari, sayohat rejalashtirishda esa AI asosidagi tavsiya platformalari faol qo‘llanila boshladi. [3]Natijada esa turizm xizmatlarining samaradorligi oshdi, xarajatlar qisqardi va xavfsizlik darajasi sezilarli darajada yaxshilandi. Raqamli

[3] Organisation for Economic Co-operation and Development. (2021). Tourism Policy Responses to COVID-19. Paris: OECD Publishing.

texnologiyalar, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun yangi bozor bir qancha imkoniyatlarini ochib berdi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarining turizmga integratsiyasi ham post-pandemiya davrining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab davlatlar turizmni qayta tiklash jarayonida ekologik barqarorlikni ustuvor yo‘nalish sifati etib belgilandi. Mehmonxonalar va turistik obyektlarda energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi choralar keng joriy etilmoqda. Ba’zi davlatlarda esa “yashil sertifikatlash” tizimlari ishlab chiqilib, ekologik standartlarga javob beradigan turistik obyektlar rag‘batlantirilmoqda. Ushby jarayon turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorligini ham oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq tiklanish jarayoni bilan bir qatorda bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Eng dolzarb muammolardan biri ekologik bosimning qaytadan kuchayishi. Turizm oqimining tiklanishi bilan tabiiy resurslarga yuklama oshib, ayrim hududlarda yana overtourism xavfi paydo bo‘lmoqda. Bu holat, ayniqsa, ekologik jihatdan nozik hududlar uchun katta tahdid tug‘diradi. Shu sababli ham turizmni boshqarishda kvotalar joriy etish, ekologik soliq tizimlarini qo‘llash va turistlar oqimini muvozanatlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shunday qilib, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, post-pandemiya davrida turizm sektori tubdan yangilanib bormoqda. U endilikda faqat iqtisodiy foyda olishga yo‘naltirilgan tizim emas, balki ekologik muvozanatni saqlash, texnologik innovatsiyalarni joriy etishga asoslangan kompleks tizimga aylanmoqda. Mazkur transformatsiya jarayoni hali yakuniga yetmagan bo‘lsa-da, uning asosiy yo‘nalishlari allaqachon shakllanib ulgurgan va kelajakdagi rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, post-pandemiya davri turizm sektorida tubdan yangi modelning shakllanishiga olib keldi. Endilikda turizm faqat iqtisodiy tomonlama foyda emas, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlovchi kompleks tizim sifatida rivojlanmoqda. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: yashil iqtisodiyot asosida milliy turizm strategiyalarini ishlab chiqish; • ekologik sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish; • raqamli turizm infratuzilmasini rivojlantirish; • mahalliy jamoalarni turizm jarayoniga faol jalb etish; • overtourismni boshqarish uchun kvota va monitoring tizimlarini joriy etish. Turizm sektori yangi global iqtisodiy sharoitda o‘zining an’anaviy modelidan chiqib, barqaror va innovatsion tizimga aylanmoqda. Bu esa kelajakda turizmning yanada samarali va muvozanatli rivojlanishiga asos yaratib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Tourism Organization. (2023). Tourism Recovery Report. Madrid: UNWTO Publishing.
2. World Bank. (2022). Green Economy and Tourism Development. Washington, DC: World Bank Publications.
3. c
4. World Travel & Tourism Council. (2022). Travel & Tourism Economic Impact Report. London.
5. European Commission. (2023). European Green Deal and Sustainable Tourism Strategy. Brussels.
6. Stefan Gössling. (2021). Tourism and Global Environmental Change: Ecological, Social and Economic Perspectives. Routledge.